

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at*
Samarkand State Architecture and Construction University

SAYYOHLIK MAJMUALARI VA MEHMONXONALARDA «TO'SIQSIZ MUHIT» YARATISH TAMOYILLARI

Ph.D, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktorant
Sharipova Y. O

Ph.D, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktorant
Yusupova A. I

Annotatsiya: Maqolada turizm va sayyohlik sohalari bilan bog'liq bo'lgan inshootlarda, umuman olganda hayotning barcha jabhalarida jismoniy harakati cheklangan va nogironligi bor insonlar, yosh bolalar va qariyalarning erkin harakatlanishlari uchun to'siqsiz arxitekturaviy muhit yaratish maqsadida, "Inklyuziv turizm", "Universal arxitektura", "To'siqsiz muhit" kabi turistik shaharlarni rivojlantirish konsepsiyasida qulay muhit tamoyillarini o'rganishga bag'ishlangan. Sayyohlik majmualari va mehmonxonalarining qaysi qismlarda ushbu elementlardan foydalanish kerakligi haqida mulohaza yuritilgan. Bundan tashqari mamlakatimizning turizm rivojlangan shaharlaridan biri bo'lgan Buxoro viloyatidagi eng nufuzli mehmonxonalarida yaratilgan sharoitlar tahlil qilingan. Tahlil natijalari o'rganilib, holat bo'yicha kamchiliklar va yutuqlarga urg'u berilgan. Oqsagan nuqtalarni tuzatish, turizmni yanada rivojlantirish maqsadida kichik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nogironligi bor shaxslar, to'siqsiz muhit, universal dizayn, rampalar, lift, pandus, mehmonxona, sanitar gigienik xonalar.

Kirish. Tahlil va o'rganishlar natijalariga ko'ra, bugungi kunda yer yuzida taxminan 1,3 milliard odam jiddiy nogironlikni boshdan kechirmoqda. Bu dunyo aholisining 16 foizini yoki har 6 kishidan 1 nafarini tashkil qiladi. Ba'zi nogironligi bor shaxslar nogiron bo'lmaganlarga qaraganda 20 yil oldin vafot etadilar. Bu insonlar "ikkinchi darajali" yoki ko'zga ko'rinmas insonlar bo'lib qolmasliklari [1] va bunday shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash juda dolzarb mavzu hisoblanadi. Xalqaro tajribalarni tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslarning jamiyatning barcha sohalarida ishtiroki faollashmoqda. Bugungi kunda turizm sohasidagi asosiy muammolardan biri, sayyohlik obyektlari, mehmonxonalar, muzey kabi jamoat binolarida jismoniy harakati cheklangan shaxslarning erkin harakatlanishlari uchun arxitekturaviy muhitning mukammal emasligidir. Mamlakatimiz turistik hududlar shaharsozligida ham bunday muammolar talaygina. Bu muammolarga mukammal yechim berish arxitektorlarning oldida katta ma'suliyat va vazifalar yuklaydi. Shu o'rinda biz nega nogironlarni sayohatga jalb qilishimiz kerak? Nega ular uchun sharoit yaratishimiz kerak degan savol tug'iladi. Birinchidan, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bor shaxslarning katta qismi bu sohaga jalb qilingan. N.V. Belarusova o'zining kichik tadqiqotida dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv turizmning rivojlanganlik darajasini tahlil qilgan. 1-jadvalda berilgan foizlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich 100 foizni ko'rsatmoqda. Germaniya va Chexiyada esa to'siqsiz muhit bilan turizm infratuzilmasi 95 foiz jihozlangan (1-jadval) [6]. Demak, bizning mamlakatda ham inkluziv turizmga talab ortib bormoqda.

1-jadval.

Davlat nomi	To'siqsiz muhit yaratilganlik darajasi	Turizm turlari
Ispaniya	Turizm infratuzilmasidagi 90% elementlar moslashtirilgan	chang'i uchish, suzish, ilmiy-ta'lim, plyaj
Finlandiya	Turizm infratuzilmasidagi 70% elementlar moslashtirilgan	Reima mamlakati (it bilan sayohat, otlar, to'rt g'ildirakli mototsikllar, qor avtomobillari (qishda) va baliq ovlash, eshkak eshish, suzish rafting va chang'i sporti), golf, curling
Isroil	Turizm infratuzilmasidagi 85% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, plyaj, diniy
Gretsiya	Turizm infratuzilmasidagi 65% elementlar moslashtirilgan	Madaniy-ma'rifiy (ko'rlar uchun)
Vengriya	Turizm infratuzilmasidagi 65% elementlar moslashtirilgan	Madaniy-kognitiv, plyaj, salomatlikni yaxshilash
Chexiya	Turizm infratuzilmasidagi 95% elementlar moslashtirilgan	Madaniy-ma'rifiy, sog'lomlashtirish, tropik dunyoga sayohat, tadbir sayohatlari (nogironligi bo'lgan odamlar uchun xalqaro festivallarni tashkil etish,), chang'i, skuter, intellektual
Germaniya	Turizm infratuzilmasidagi 95% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash
Fransiya	Turizm infratuzilmasidagi 85% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash, chang'i, skuter
Buyuk Britaniya	Turizm infratuzilmasidagi barcha elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash, intellektual
AQSH	Turizm infratuzilmasidagi 80% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, salomatlikni yaxshilash, Paralimpiya o'yinlari
Avstraliya	Turizm infratuzilmasidagi 75% elementlar moslashtirilgan	madaniy-ma'rifiy, ekologik, plyaj, suzib yurish, sho'ng'ish

Asosiy qism. Xalqaro sayyohlar tashrif buyurganda aynan jismoniy harakati cheklangan shaxslar uchun yaratilmagan sharoit mamlakatimiz turistik salohiyatini tushurishi mumkin. Ofitserova N. Solnseva O. Tsunaeva J.lar xorijiy tajribalarni tahlil qilishgan. Nogironlarni jamoat hayotiga jalb qilish bo'yicha xorijiy tajribalar o'nlab yillar davomida to'plangan:Buyuk Britaniyada nogironlik to'g'risidagi qonunchilik 1944-yildan beri mavjud va 1961-yilda AQSHda nogironlar uchun binolardan foydalanish imkoniyati standarti qabul qilingan. 1975-yilda "Nogironlar to'g'risida"gi qonun qabul qilinganidan keyin Qo'shma Shtatlarda katta o'zgarishlar ro'y bergan[2].Bugungi kunda AQSHda inkluziv turizm juda rivojlangan, turizm infratuzilmasidagi 80% elementlar inkluziv turizmga moslashtirilgan[6].

O'zbekistonda ham bu ishlardan chetda turmagan holda juda ko'p qonun hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib "Nogironlar huquqlari to'g'risida" (Nyu-york,2006-yil,13-dekabr) Konvensiya O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 7-iyundagi O'RQ-695-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan,2021-yil 28-iyuldan kuchga kirgan[3].Nogironligi bor shaxslarni jamiyat hayotidan uzilib qolmasligini ta'minlash maqsadida dunyo olimlari va mutasaddi tashkilotlar tomonidan juda ko'p islohotlar va loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.Ulardan eng asosiylaridan biri bu Universal dizayn va To'siqsiz muhit yaratish masalasidir. Universal dizayn bu - turli xil binolar, muhitlar, mahsulotlar, aloqa, axborot texnologiyalari va xizmatlarining dizayni va tarkibini iloji boricha mustaqil va tabiiy ravishda hamma uchun ochiq va tushunarli, shuningdek, sog'lom va nosog'lom insonlar uchun moslashuvchan bo'lib, alohida ixtisoslashtirilgan yechimlarga ehtiyoj sezmasdan foydalanish mumkin bo'lgan loyihalash strategiyasidir.[7.73-b.]Umumjahon me'morlarining asosiy maqsadi har kimga ularni moslashtirmasdan to'liq foydalanish imkonini berishdir. Arxitektura va dizayn sohalarga taalluqli konseptsiya sifatida qaraladigan Universal dizayn odamlarga ularning xususiyatlari, yoshi va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda xizmat qiladi.[8]Bu strategiya natijasida jamiyatning barcha sohalarida jismoniy harakati cheklangan insonlarning ishtirokini keng qamrovda ta'minlash mumkin,masalan,turizm sohasida.Belomestnova M.E va

Sharikov V.I o'zlarining kichik tadqiqotlarida Germaniya turistik obyektlarida yaratilgan to'siqsiz muhitga alohida urg'u berib o'tishgan. Germaniya tajribasini o'z mamlakatlarida tadbiq etish bo'yicha mulohaza yuritishgan[9]. Rus olimlari turizmga asoslangan shaharlarni rivojlantirish bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribani tahlil qilish asosida qulay muhit mezoniga muvofiq, turistik shaharni rivojlantirish konsepsiyasida qulay muhitning asosiy tamoyillari belgilab olishgan:

1. Shahar brendini shakllantirish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.
2. Shaharni funksional rayonlashtirish.
3. Shahar muhitini arxitekturaviy-fazoviy rejalashtirish tashkil etish.
4. Avtomobil transporti tarkibini tashkil etish.
5. Navigatsiya tizimini tashkil etish.
6. Turizm infratuzilmasi va turizm ob'ektlari.
7. Ko'kalamzorlashtirish.[4]

Demak, qulay arxitekturaviy muhit yaratish muammoga kompleks yondashishni talab qiladi. Umuman olganda sayyohlarga xizmat qiladigan binolarda inkluziv arxitekturani shakllantirish bu binolarning kirish joylariga to'siqli panduslar, ko'zi ojizlar uchun g'adir budur yo'lakchalar, ostonasiz eshiklar, nogironlik aravachasidagi insonlar uchun qulayliklar bilan ta'minlanishi kerak[5]. Landshaft, eksterer va interer dizaynida universal muhitni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Bu bilan biz faqatgina nogiron shaxslarga emas jamiyatdagi yosh bolali onalar, bolalar, vaqtincha betob va qariyalar uchun ham erkin harakatlanishlari uchun imkoniyatlar yaratgan bo'lamiz. Barqaror arxitektura kontsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, "universal arxitektura" konsepsiyasi ob'ektlarni inkluziv ta'limga moslashtirish va "barqaror" turizmni rivojlantirish va barqaror shaharda qulay yashash rejalarini amalga oshiradi. Zamonaviy moslashgan shahar kontekstida "to'siqsiz muhitdan universal arxitekturagacha" yangi paradigmasi tobora kuchayib bormoqda[10].

Sayyohlik majmualarini loyihalashda to'siqsiz muhitni yaratish. Sayyohlik majmualarini loyihalashda to'siqsiz muhit bilan ta'minlashda kompleksni zonalarga bo'lgan holda o'rganib chiqamiz. Turistik majmualarni quyidagi funksional zonalarga maqsadli ajratish mumkin:

- turar joy - mehmonxona, otel, motel
- kirish - turistik majmualar qabulxonasi va ma'muriyati bilan o'zaro bog'langan binolar guruhlar;
- chakana savdo - turistik majmualarga tashrif buyuruvchilar uchun savdo va maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq binolar;
- sanoat - sanoat binolarining turli guruhlar (ovqatlanish, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash ustaxonalari, fotostudiyalar va boshqalar). Umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqarish funksional zonasi ovqat tayyorlash bilan bog'liq binolar guruhidir: oshxona, ta'minot ustaxonalari, oshxona va idishlarni yuvish va boshqa binolar;
- sport - jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan bog'liq binolar va maydonlar guruhlar, sport zali yoki yordamchi xonalari bo'lgan suzish havzasi;
- madaniy-ishlab chiqarish - madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan turli guruhlardagi binolar;
- ma'muriy va idoraviy - turistik kompleksni boshqarish bilan bog'liq binolar guruhlar;
- ombor - mahsulotlar, turli materiallar va inventarlarni saqlash va saqlash bilan bog'liq binolar guruhlar;
- texnik - turistik majmuaga muhandislik-texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xonalar: ventilyatsiya kameralari, konditsionerlar jihozlari bilan jihozlangan mashina xonalari, kommutatorlar, boshqaruv kamerasi va dvigatel xonasiga ega lift vallari va boshqalar.

Zonalar uchun umumiy bo'lgan qismlar mavjud. Ular avtoturargoh, kirish qismi, qabul bo'limi, yo'laklar, lift, rampalar va boshqalar.

Avtoturargoh. Shaxsiy avtotransporti uchun avtoturargohlar bino yoki inshootning kirish qismiga yaqin, ya'ni 100 m dan uzoq bo'lmagan (25 — 50 m bo'lishi tavsiya etiladi) masofada bo'lishi va maxsus belgilar o'rnatilishi lozim (1-rasm).

Kirish qismida to'siqsiz muhitni ta'minlash. Darsy o'zining kitobida kirish qismini 3 xil xarakterdagi nogironligi bor shaxslar uchun moslashtirishni tavsiya qilgan.

1. Jismoniy harakati cheklanganlar uchun kirish-imkoniyati nogironlar aravachasi yoki yurish moslamalaridan foydalanishni talab qiladigan nogironlarni o'z ichiga oladi. Ular yo'llar, rampalar, liftlar, tutqichlar, aniq yo'nalish belgilari, chekkalar, aylanma xona, keng eshiklar, dush kabinetlari, pastga tushirilgan va telefonlar va boshqalar stollar bilan ta'minlashni talab qiladi. Bu elementlar uzluksiz foydalanish mumkin bo'lgan yo'lga muvofiqlashtirilgan.

2. Sensorli kirish eshitish yoki ko'rish qobiliyatiga ega bo'lmagan odamlarni o'z ichiga oladi. Ular teginish belgilari va teglar, teginish belgilari yoki 2 ta'minlashni talab qiladi. pol qoplamalarining o'zgarishidagi vizual signallar, liftlar va chiroqlar uchun audio signallar va eshitishni kuchaytirish-tinglash tizimlari va boshqalar.
3. Aloqa orqali kirish yozma so'z, ko'rish, nutq yoki eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan yoki boshqa madaniyatlarga mansub odamlarni o'z ichiga oladi. Boshqa madaniyatga mansub kishilarning yozma so'z, ko'rish, nutq va eshitish qobiliyati bilan bog'liq muammolari bo'lgan odamlar [11]. Qabulxona bo'limlarida, mehmonxonalarning kirish qismida reception bo'limida nogironlar uchun balandligi 0.80 m dan baland bo'lmagan qismi bo'lsa maqsadga muvofiqdir (2-rasm).

Sanitariya-gigiyena xonalarida nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanadigan kabinalarning geometrik ko'rsatkichlari kamida quyidagicha bo'lishi kerak:

yopiq dush kabinalari, yechinish kabinalari uchun — 1,8x1,8 m;

o'zaro ochiq o'tish joyli dush kabinalari uchun — 1,2x0,9 m;

hojatxona kabinalari uchun — 1,65x1,8 m;

ayollarning shaxsiy gigiyena xonasi uchun — 1,8x2,6 m;

yechinib kiyinish xonasidagi yechinish joyi uchun (o'rindiqlar) — 0,6x1,5 m.

Kabinalar qatorlari orasidagi masofa 1,8 m bo'lishi kerak. Dush xonasi bilan birlashtirilgan sanitariya bo'linmasining o'lchamlari kamida 2,2x2,2 m bo'lishi kerak. Sanitariya bo'linmasida o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarga qulaylik yaratish uchun maxsus jihozlar (tutqichlar, metall shtangalar, buklanadigan o'rindiqlar) o'rnatilishi lozim. Yechinib kiyinish xonalarining maydoni kamida 12 m² bo'lishi kerak. Poldan 1,2 m dan ortiq bo'lmagan balandlikdagi javonli individual shkaflar nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay joylashgan bo'lishi va shkafl oldida o'rindiqli aravacha bemalol harakatlanishi uchun 1,5x1,5m o'lchamdagi zona nazarda tutilishi kerak. Shkaflar o'lchamlari kamida 0,4x0,5 m bo'lishi kerak. Ochiq holda saqlanadigan kiyimlar uchun ilmoqlarning balandligi pol sathidan 1,2 m yuqorida bo'lishi kerak.

Mehmonxonalar nomerlarida to'siqsiz muhit. Mehmonxona muassasalarida o'rinlarning umumiy sonidan 5 — 8 foizi o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarni joylashtirish uchun mo'ljallanishi lozim. Nogironlar uchun namunali nomer loyihasi 3-rasmida berilgan.

Ovqatlanish muassasalarida to'siqsiz muhit. Ovqatlanish muassasalarida quyidagi elementlarda to'siqsiz muhit yaratilishi zarur. Erkin harakatlanish uchun yo'laklar, stolda erkin o'tirish uchun erkin muhit, yuvinish va sanitar gigienik xonalari, yong'in vaqtida tezda chiqib ketishni ta'minlash, lift va zinapoyalar (4-rasm) [12]. Restoran va kafelarda nogironlar, qariyalar va yosh bolalilar uchun kalyaska yoki aravacha erkin harakatlanishi uchun bo'sh hududlar ajratilishi ularning atrof muhit bilan erkin muloqot qilishida yordam beradi.

Tomosha ko'ngilochar, sport zonasi va suzish havzalarida. Tomosha va sport zallarida hamda ko'ngilochar komplekslarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ajratiladigan o'rinlar bevosita evakuatsiya chiqishiga olib boruvchi yo'laklarga yaqin joylashtirilishi kerak. Nogironligi bo'lgan shaxslar o'rnini joylashtirishda evakuatsiya paytida boshqa tomoshabinlarning evakuatsiya qilish yo'llari bilan to'qnashmasligini nazarda tutish tavsiya etiladi. Tomosha, sport va ko'ngilochar zallaridagi nogironligi bo'lgan shaxslar o'rnidan evakuatsiya chiqishigacha masofa 25 m dan oshmasligi kerak, bunda yo'lakning kengligi 1,2 m dan kam bo'lmasligi kerak. O'rindiqli aravacha yo'lining kengligi 1,5 m dan kam bo'lmasligi lozim [5].

Buxoro mehmonxonalari doirasida to'siqsiz muhit tahlili. Ko'plab adabiyotlar, xorijiy tajribalarni o'rgangan holda Buxoro viloyatidagi nufuzli mehmonxonalarda nogiron shaxslarga yaratilgan sharoitlar o'rganildi. Bu shahar tanlanishidan maqsad shuki, Buxoro viloyati O'zbekistonda turistik salohiyati jihatidan yuqori o'rinni egallagan. Kichik tadqiqot jarayonida hududdagi eng nufuzli, 3,4 yulduzli mehmonxonalar tanlab, nogironligi bor shaxslarni qabul qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqildi. Shu jumladan, Buxoro shahrida joylashgan "Wyndham Bukhara" mehmonxonasi arxitekturaviy muhiti borib o'rganildi. Bu mehmonxona 450 kishilik sig'imga ega bo'lib, 212 ta xonalar mavjud. Avtomobil to'xtash joyida maxsus nogironlar uchun joy ajratilgan. Kirish joyi ham nogironlik aravachasi uchun ham moslashtirilgan ostonasiz. Mehmonxonada 2 ta xona jismoniy harakati cheklanganlar uchun ajratilgan va u 5 etajda joylashtirilgan. Lift mavjud. "Grand Bukhara" mehmonxonasi 300 kishilik sig'imga ega va 262 nomerga ega. Avtomobil to'xtash joyi talabga javob bermaydi va binoga kiraverishda kichik zina bo'lib, tutqichli pandus ham yo'q. Nogironlar uchun 1 ta xona ajratilgan bo'lib, 7 etajda joylashgan. "Sahidi Zarafshon" 4 yulduzli mehmonxona umumiy 248 ta xonasi mavjud va u salkam 450 kishiga mo'ljallangan. 2 etajda nogironlar uchun 1 ta xona ajratilgan, lift mavjud. Avtomobil to'xtash joyida alohida joy ajratilgan. 4 yulduzli mehmonxona "Orient Star Varaxsha" mehmonxonasi 400 kishilik, 204 ta xona mavjud. Bu mehmonxonada umuman nogironlar uchun xona ajratilmagan. "Turon City Plaza" mehmonxonasi nufuzli 4 yulduzli mehmonxonalar turiga kiradi. Bu mehmonxona umumiy sig'imi 210 kishilik, 105 nomerga ega. Shulardan ikkikchi etajda 2 ta xona nogironlar uchun ajratilgan. Lift mavjud. "Turon plaza" mehmonxonasi umumiy 120 ta sayyohni sig'ira oladi va 1 etajda 2 ta nomer nogironlar uchun ajratilgan. "Reikartz Bahor Buxoro" mehmonxonasi 4 yulduzli mehmonxona. Bu mehmonxonada nogironlar uchun xona ajratilmagan. "Rangrez hotel", "Paradise plaza" va bir qancha 3 va 4 yulduzli mehmonxonalarda umuman nogironlar uchun sharoitlar mavjud emas va xonalar ajratilmagan (2-jadval).

2-jadval.

Mehmonxona nomi	Mehmonxona umumiy xonalar soni	Ajratilgan xonalar soni	Nogiron shaxslar uchun sharoitlar
Wydhm Bukhara	212 xona,450 kishi	2 ta,5-etajda	bor
Grand Bukhara	262 xona,300 kishi	1 ta,7-etajda	bor
Sahidi Zarafshon	248 xona,450 kishi	1 ta,2-etajda	bor
Orient Star Varaxsha	204 xona,400 kishi	Yo'q	Yo'q
Turon City Plaza	210 xona,105 kishi	2 ta,2-etajda	bor
Turon plaza	120 kishi	2 ta,1-etajda	bor
Reikartz Bahor Buxoro		Yo'q	Yo'q
Rangrez hotel		Yo'q	Yo'q
Paradise plaza		Yo'q	Yo'q
Ko'k gumbaz		Yo'q	Yo'q

Tadqiqod xulosasi. Holatni o'rganish faqatgina nogironlar aravachasida o'tiradigan sayyohlar doirasida o'rganildi. Kuzatuvlar natijasida bu mehmonxonalarning barchasi (reception) qabul qismi faqatgina sog'lom odamlar uchun mo'ljallangan. Qabulxona qismida balandligi 80 sm dan oshmaydigan joy bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ammo tahlildagi mehmonxonalarda bunga umuman ahamiyat berilmagan. Mavjud sanitariya gigiena xonalarida ham qisqa muammolarga duch kelish mumkin. Binolarning ayrimlarida panduslarni uchratmaslik mumkin. Mehmonxonalar, dam olish muassasalari va tibbiy-ijtimoiy muassasalarda nogironlar uchun ajratilgan xonalar quyidagi talablarni hisobga olib loyihalashtirilishi kerak:

- ustuvor ravishda birinchi qavatda bo'lishi;
- nogironligi bo'lgan shaxslarni turar joyidan evakuatsiya chiqish joyigacha bo'lgan masofa 50 m dan oshmasligi;
- tashrif buyuruvchilarning xonalarga qulay yetib borishini ta'minlash kerak. Loyihalashda o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarning talablari bilan bir qatorda, ko'rishda va eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning ham talablari hisobga olinib, ma'lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalarining o'rnatilishi hisobga olinishi kerak. Mehmonxonalarda o'rinlarning umumiy sonidan 5–8 foizi o'rindiqli aravachadagi nogironligi bo'lgan shaxslarni joylashtirish uchun mo'ljallanishi lozim. Xulosa qilib aytganda inkluziv turizm mamlakatimizning dunyo bo'yicha turistik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda arxitektorlarning hissasi katta hisoblanadi. Tahlil olib borilgan hudud, Buxoro shahri O'zbekistonda juda yaxshi turistik salohiyatga ega bo'lgan shahardir. Shaharda dunyo sayyohlarini jalb qilishga arzigulik turistik resurslar mavjud. Ammo, dunyo bo'yicha tan olinib, qo'llanilib kelinayotgan to'siqsiz muhit yoki inkluziv turizm sohasi ancha past pog'onada turibdi. Tahlil qilingan mehmonxonalar eng nufuzli mehmonxonalar hisoblanadi. Bu nufuzli mehmonxonalarda ham kamchilik uchrashi bu achinarli holat hisoblanadi. Tahlil natijasida bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi.
- Mehmonxonalar kirish qismidagi qabul bo'limida nogironlar uchun joy ajratish;
- Mehmonxona avtomobil to'xtash joylarida alohida joy ajratish;
- Xojatxona va yuvinish xonalarini loyihalashda talablarni inobatga olish;
- Bino landshaft qismida maxsus qoplamali yo'laklarni tashkil etish;
- Mehmonxona xizmatlarini reklama qilishda aynan nogironlar uchun ajratilgan xonalar haqida ham ma'lumot berish kerak. Chunki, biz sharoitlar yaratganimiz bilan sayyohlarni jalb qilmasak ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi;
- Interer qismini loyihalashda inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladigan ranglar va shakllardan foydalanish.
- Bundan tashqari, turistik majmuaning funksional zonalash jarayonida nogironlar uchun alohida dam olish turlarini hisobga olgan holda loyihalash zarur. Masalan, sport zonasida ular uchun alohida sport turlari uchun yacheykalar tashkil etish mumkin. Chakana savdo bo'limida nogironligi bor shaxslar va boshqalar uchun ham erkin harakatlanish gabaritlarini hisobga olish zarur.



1-rasm.(Manba: ShNQ 2.07.02-22 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo’lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalariga)



2-rasm.(Manba: <https://www.malls-71.pw/products.aspx?cname=accessible+reception+desk&cid=10>)

7. United Nations Development Group / A Guidance Note for United Nations Country Teams and Implementing Partners, Including the rights of persons with disabilities in United Nations programming at country level (New York, 2011)
8. <https://www.archdaily.com/994337/what-is-universal-design>
9. Беломестнова М.Е., Шариков В.И. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ БЕЗБАРЬЕРНОЙ СРЕДЫ НА ТУРИСТСКИХ ОБЪЕКТАХ: ОПЫТ ГЕРМАНИИ // Вестник РМАТ. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdunarodnyy-opyt-organizatsii-bezbariernoy-sredy-na-turistskih-obektah-opyt-germanii> (murojaat qilingan sana: 11.06.2023).
10. Курбатова Н.В. Универсальная архитектура // Творчество и современность. 2016. №1 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/universalnaya-arhitektura> (дата обращения: 11.06.2023).
11. S. Darcy (1998). Anxiety to access: tourism patterns and experiences of NSW people with physical disability. Tourism NSW, Sydney, NSW.
12. Shail Pratap Singh.RESTAURANTS : BARRIER FREE DESIGN concepts (comprehensive)// https://www.academia.edu/29776920/RESTAURANTS_BARRIER_FREE_DESIGN_concepts_comprehensive